

YAPON TILIDA RASMIY MULOQOTDA FE'LLARNING SEMANTIK VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

YUSUPOVA MADINABONU ALISHER QIZI

Annotatsiya: Ushbu maqolada yapon tilida rasmiy muloqotda ishlatiladigan fe'llarning semantik va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasiga 丁寧語 (teineigo), 謙讓語 (kenjōgo), 尊敬語 (sonkeigo) shakllari va ularning kontekstga mos ishlatilishi kiradi. Natijalar ko'rsatadiki, fe'llarning tanlovi nafaqat grammatik qoidalarga, balki pragmatik va sotsiollingvistik omillarga ham bog'liq. Shu bilan birga, rasmiy fe'llar tinglovchining ijtimoiy mavqeini hisobga olgan holda nutqning muloyimligi, kamtarligi va hurmatini ifodalaydi. Tadqiqot yapon tilini o'rganuvchilar uchun amaliy tavsiyalar beradi, xususan, fe'llarning kontekstga mos ishlatilishi va tarjimada yuzaga keladigan qiyinchiliklar bo'yicha. Nodira (2017) ta'kidlaganidek, muloyimlik va ekspressiv birliklar madaniyatga xos bo'lib, tarjimada qisman yo'qolishi mumkin, shuning uchun rasmiy fe'llarning pragmatik jihatini chuqur tushunish muhimdir.

Abstract: This article analyzes the semantic and functional characteristics of Japanese verbs used in formal communication. The study covers the categories of polite (teineigo), humble (kenjōgo), and honorific (sonkeigo) forms and their contextual usage. Findings indicate that verb choice depends not only on grammatical rules but also on pragmatic and sociolinguistic factors. Formal verbs convey politeness, humility, and respect while reflecting the listener's social status. The study provides practical recommendations for Japanese learners, particularly regarding contextual verb usage and translation challenges. As Nadira (2017) notes, politeness and expressive markers are often culturally bound and may be partially lost in translation, highlighting the importance of understanding the pragmatic dimension of formal verbs.

Kalit so'zlar: Yapon tili, rasmiy fe'llar, keigo, pragmatika, sotsiollingvistika, tarjima, kontekstual foydalanish

Kirish

Mening tadqiqot mavzuyim — “Yapon tilida rasmiy muloqotda fe’llarning semantik va funksional xususiyatlari”. Ushbu tadqiqot yapon tilidagi rasmiy fe’llar yoki keigo shakllarining ma’nosi va nutqda qanday ishlatilishini o’rganishga qaratilgan.

Yapon tilida rasmiy fe’llar nafaqat grammatik birlik sifatida, balki nutqda hurmat, muloyimlik va tinglovchining ijtimoiy mavqeini ifodalash vositasi sifatida ishlatiladi. Masalan, oddiy fe’l iku (“boradi”) rasmiy muloqotda -masu shaklida ishlatiladi. Bu shakl tinglovchiga hurmat ko’rsatadi va suhbatni rasmiy qiladi.

Fe’llarning semantik jihat — u nutqda hurmat, pastlik yoki ijtimoiy mavqeni bildiradi. Funksional jihat esa — nutqni yumshatadi, tinglovchining yuzini saqlaydi va muloqotdagi ijtimoiy uyg’unlikni ta’minlaydi. Shu bilan birga, rasmiy fe’llar yapon tilida madaniyat va muloqotning ajralmas qismidir.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — telefon va biznes muloqotida rasmiy fe’llarning semantik va pragmatik (funksional) xususiyatlarini aniqlash va ularning ijtimoiy kontekstga moslashuvini o’rganishdir. Tadqiqot natijalari yapon tilini o’rganuvchilar uchun amaliy tavsiyalar va madaniyat ta’limida qo’llash imkoniyatini beradi.

Mavzuni tanlashimga yapon tilining rasmiy nutqda o’ziga xos murakkab va nozik tizimga ega ekanligi sabab bo’ldi. Fe’llarning shakli va ma’nosidagi farqlar muloqot jarayonida muhim rol o’ynaydi. Ayniqsa, rasmiy muloqotda qo’llaniladigan keigo tizimi (丁寧語, 謙讓語, 尊敬語) chet tilini o’rganuvchilar uchun eng qiyin, shu bilan birga eng muhim jihatlardan biridir.

Tadqiqot materiali va metod

Tadqiqot materiali sifatida yapon kompaniyalarida telefon va biznes muloqoti namunalaridan olingan real dialoglar va ularning transkriptlari ishlatilgan. Shu bilan birga, yapon tilidagi keigo bo’yicha ilmiy adabiyotlar va darsliklar, shuningdek, amaliy audio va yozma materiallar tahlil qilindi.

Tahlil usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Pragmatik tahlil – nutq maqsadi va kontekstga bog'liq tahlil.
2. Sotsiollingvistik tahlil – ijtimoiy maqom, masofa va rol munosabatlari.
- 3.

Diskurs tahlili – muloqot jarayonida fe'llarning ketma-ketligi va funksiyasi.

4. Kontekstual-funksional tahlil – rasmiy fe'llarning nutqdagi vazifalarini aniqlash.

Muhokama va natijalar

Yapon tilida rasmiy fe'llar tanlovi grammatik qoidalar, ijtimoiy mavqe, konfidentsiallik darajasi va tinglovchi bilan munosabatga bog'liq. Masalan, 尊敬語 (sonkeigo) shakllari yuqori mavqedagi shaxsga hurmat ko'rsatadi, 謙讓語 (kenjōgo) shakllari esa so'zlovchining o'zini pastroq qilib ko'rsatadi.

Ide, S. (2006) ko'rsatganidek, fe'l shakllari tinglovchining yosh, mavqe va ijtimoiy roliga qarab tanlanadi. Brown va Levinson (1987) muloyimlik nazariyasi esa nutqda yuz (face) tushunchasi va Face-Threatening Acts (FTA) orqali fe'llarning pragmatik ahamiyatini tushuntiradi. Makino, A. (2010) esa fe'llarni o'rgatishda situatsion yondashuv, xususan telefon va biznes muloqoti vaziyatlarida role-play metodini samarali deb biladi.

Nodira, K. (2017) ta'kidlaganidek, rasmiy fe'llarning muloyimlik va ekspressivligi madaniyatga xos bo'lib, tarjimada qisman yo'qolishi mumkin. Shu sababli, yapon tilini o'rganuvchilar nafaqat grammatik jihatni, balki kontekstual va pragmatik jihatni ham chuqur tushunishi muhimdir.

Tahlil shuni ko'rsatadiki:

- Fe'llarning to'g'ri tanlanishi muloqotdagi ijtimoiy uyg'unlikni saqlaydi.
- Rasmiy fe'llar tinglovchining yuzini saqlash, konfliktini oldini olish va muloyimlikni ta'minlash vositasi sifatida ishlatiladi.

- Telefon va biznes muloqotida keigo shakllari dinamik tarzda tanlanadi va kontekstga moslashadi.

Xulosa

Yapon tilida rasmiy muloqotda fe'llar semantik va funksional jihatdan noyob ahamiyatga ega. Ular:

- Ijtimoiy mavqe va hurmatni ifodalaydi.
- Nutqning muloyimligini, kamtarligini va samimiyligini ta'minlaydi.
- Telefon va biznes muloqotida tinglovchi va vaziyatga qarab dinamik tanlanadi.

Nodira, K. (2017) fikri orqali ko'rsatildi: rasmiy fe'llarning tarjimada ekspressivligi va madaniy konteksti qisman yo'qolishi mumkin. Shu sababli, yapon tilini o'rganuvchilar pragmatik va sotsiollingvistik jihatni ham o'rganishi zarur.

Tadqiqot natijalari yapon tilini o'rganuvchilar uchun:

- Rasmiy nutqda fe'llarni to'g'ri tushunish va amaliy qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.
- Telefon va biznes muloqotida real vaziyatlarda samarali nutqni yaratish.
- Tarjima va til o'rganish jarayonida madaniy jihatni hisobga olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ide, S. (2006). Yapon tilida rasmiy va hurmat shakllarining ijtimoiy, pragmatik va madaniy asoslari.
2. Brown, P., Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press.
3. Makino, A. (2010). Keigo va til o'rgatish. Japan Times, Kodansha.
4. Okamoto, S. (1997). Gender va rasmiy nutq. Journal of Pragmatics.

5. Nodira, K. (2017). The problem in translation from Japanese to Uzbek in the novel *A Wild Sheep Chase*: Focusing on Politeness. *Literary Imagination*, 19(3), 760–771.